

THE ART OF ILLUSTRATION IN HAMID DAMANHURI'S NOVEL THE VALUE OF SACRIFICE OR LOVE AND DUTY

Asliddin Mirzamiddinov

TDSHU Masters, Teacher of Tashkent Islamic Institute

ANNOTATION

This article deals with the art of simile in Hamid Damunhuri's novel The Value of Sacrifice or Love and Duty, based on sources.

Keywords: Tashbih, Analogy, Homid Damunhuri, Mushabbih, Mushabbihunbiy, Odati Tashbih, Vajhi Tashbih.

HOMID DAMANHURIYNING “QURBONLIK QIYMATI YOHUD MUHABAT VA BURCH” ROMANIDA ISHALTILGAN TASHBEH SAN’ATI

Asliddin Mirzamiddinov

TDSHU magistiranti, Toshkent islom instituti o‘qituvchisi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Homid Damunhuriyning “Qurbonlik qiymati yohud muhabat va burch” romanida o‘xshatish-tashbeh san’ati manbalar asosida bayon etilgan.

Kalit so‘z: Tashbih, O‘xshatish, Homid Damunhuriy, Mushabbih, Mushabbihunbiy, Odati tashbih, Vajhi tashbih,

Bir narsani ikkinchi bir narsaga o‘xshatish tashbeh deb ataladi. O‘xshatishdan kuzatiladigan badiiy maqsad obrazlilikdir.

Tashbeh-arabcha o‘xshatish ma’noni bildiradi. Muayyan bir predmat hodisani aniq tasavvur qilish uchun uni boshqa tanish bo‘lgan narsa hodisalarga o‘xshatish, qiyoslash orqali tasvirlanadi.

Tashbehda to‘rtta unsur mavjud.

1. O‘xshamish-tasvirda fikr qaratilgan narsa, yoki tushuncha.
2. O‘xshatilmish-tasvirda qiyoslanayotgan narsa yoki tushuncha.
3. Asos- nimaga ko‘ra o‘xshatishning yuzaga chiqqanligi.
4. Vosita-o‘xshatilish belgisi.

Tashbeh – tashbih - o‘xshatish san’ati ikki narsa va tushunchani bir biriga o‘xshatib qiyoslab badiiyat yaratish tashbehning asosidir.

Tashbih (تشبيه) - o‘xshatish nazmiy va nasriy asar tilida ko‘p qo‘llaniladigan ma’naviy san’atlardan biri. Tashbih hozirgi o‘zbek tilida asosan “O‘xshatish” deb yuritiladi. Tashbih ikki yoki undan ortiq narsa, hodisa, hususiyatlarni ular o‘rtasidagi o‘xshashlik, umumiylik (sifat, belgi yoki funktsiya) nuqtai nazaridan qiyoslash.

Tashbih tasvir obekti (predmet yoki hodisaning yohud ularning hususiyatlarini) yorqinroq ifodalashga xizmat qiladi. Haqiqiy shoirlar tashbihdan faqat so‘z o‘yini sifatida emas, balki asar

g'oyasini jozibali ifodalash maqsadida foydalanganlar. Tashbih san'atining ildizlari juda uzoq zamonlarga taqaladi. Tashbih to'rt qismdan tarkib topadi:

1. Mushabbih (o'xshatilgan narsa)
2. Mushabbihunbiy (o'xshayotgan narsa)
3. Odati tashbih (o'xshatish vositalari)
4. Vajhi tashbih (o'xshatish sababi).

She'riyatda tashbih ko'pincha: -dek, -simon, -bay, -ona, -noma, -omuz, -na qo'shimchasi; kabi, o'xshash, singari, yanglig', xuddi, go'yo, bamisoli, misilsiz, tuz, andoqkiy, chuv, sifat, nusxa, rang, taxlit leksik vositalari yordamida yaratiladi.

Lola kabi yoqud qadax, yo'q tubiga durd,

Bir shisha may andoqkiy, aqiqiy aman erdi.

Alisher Navoiy

Mazkur baytda: birinchi misradagi qadax-o'xshatilgan, lola-o'xshagan, kabi-o'xshatish vositasi, yoqud (qizillik)-o'xshash sifat; ikkinchi misradagi tashbihning boshqa unsurlari mavjud bo'lganligi holda o'xshash sifati (tiniqlik, soflik) berilmagan (biroq mazmunan anglashilib turadi).

“Sutday oppoq bog'bo'stoning siynasi !” G'ofur G'ulom misrasini olib ko'raylik. Misradagi “Siyna”- o'xshatilayotgan predmet, “Sut” – o'xshayotgan narsa va “Oppoq” – o'xshash belgi “Sifat” va nihoyat, “Day” – o'xshatish qo'shimchasi. Shoir bog' bo'stoning siynasini oppoq sutga o'xshatish yo'li bilan oetik obraz yaratgan: o'quvchi qalbida tasvir ob'ekti “Bog' bo'stoning siynasi” ga qiziqish havas uyg'otayapti, tasvirda obrazlilikga va ta'sirchalikga erishalayapti.

Tashbehlar hamisha to'liq bo'lavermaydi. Chunonchi, tashbihda o'xshash belgi tushib qolishi mumkin:

Bu kun boshqachadir paxtazor, dala,

Oynaday buloqlar, kumush soch tog'lar.

(Uyg'un)

Bu baytdagi “Oynaday buloqlar leksik birikmasi-o'xshatish, ammo u to'liq emas: buloq (o'xshatilayotgan narsa) , oyna (o'xshayotgan narsa) day (o'xshatish qo'shimchasi), tiniq-o'xshash sifat belgisi tushib qolgan. Shunga qaramay o'xshatma belgi (tiniqlik) ning ma'nosi o'xshayotgan narsa anglashilib turipti. “Kumush socha tog'lar” birikmasi esa sifatlash: “Tog'lar” –tasvir ob'ekti, “Kumush soch tog'”- tog'ning sifat belgisi (birikmali sifatlash). Demak shoir shu birgina baytda buloqlar va tog'larni o'xshatish va sifatlash vositasida obrazli tasvir etmoqda.

Ba'zan o'xshatishda sifat belgisi ham, o'xshatish qo'shimchasi ham tushib qoishi mumkin. Misol:

Ko'k-yuvilgan, artilgan shisha,

Suvlar-tiniq, yaproqlar-oltin

(Uyg'un)

Birinchi misrada “ko'k” (osmon) “shisha”ga o'xshatilyapti, o'xsash sifat-“yuvilgan”, “artilgan”, ammo o'xshatish qo'shimchasi yo'q. ikkinchi misradagi “yaproqlar oltin” leksik birikmasi ham o'xshatish: bunda faqat ikki unsur bor-o'xshatilayotgan narsa (yaproq) va o'xshayotgan narsa (oltin); o'xshash sifat belgisi ham, o'xshatish qo'shimchasi ham yo'q. ammo, shunga qaramay,

shu leksik birikmaning o'zidanoq yaproqning oltinday sap-sariq va nihoyatda nafisligini anglashilib turibdi. Bunday payda o'xshash sifat belgisi va o'xshatish qo'shimchasi tasavvur qilinadi, xolos. Bu-g'oyatda siqiq, qisqa o'xshatish. "Suvlar tiniq" leksik birikmasi ham huddi shunday" suvning tiniqligi, uning tozaligi, musffoligi alomati ("tiniq" aslida sifat, lekin bu o'rinda u otlashgan. Shu sababli u o'xshayotgan narsa vazifasini o'tagan)...

Agar tashbix to'liq (to'rt juvli) bo'lsa-"tashbixi mufassal", tashbixdan "vajhi tashbihi" tushirilib qoldirilgan bo'lsa-"tshbixi mujmal", agar tashbixdan "vajhi shabix" va "vositai tashbih" tushirilib qoldirilgan bo'lsa-(tashbixda faqat "mushabbih" va "mushabbihun"-gina bo'lsa)-"tashbihi muyaqqad" deb yuritilgan.

Tashbihlarning turlari ko'p. ular yuzaga kelishiga ko'ra: inkor, kinoya, satiriq, chog'ishtirma; unsurlariga ko'ra: to'liq, to'liqsiz, vositasiz, sodda, murakkab, tarkibli, uzilgan, ketma-ket o'xshatishlarga bo'linadi.

Mumtoz she'riyatimizda tashbihlarning, asosan, quyidagi turlari ko'p qo'llanilgan:

1. Tashbihi mutlaq (ochiq o'xshatish)-bir narsani ikkinchibir narsaga tashbih vositasida to'g'ridan-to'g'ri o'xshatish:

Chun lola ko'rsam dog' erdi qat-qat

Hamdam topolmay ayturg'a hasrat.

Bog'larda sensiz, ey sarvqomat,

Qumridek etdim oxu nadomat.

(Muqimiy)

2. Tashbih-I kinoyat (kinoya yo'li bilan o'xshatish). "Bu tashbihning mohiyati shundan iboratki, shoir o'xshatish vositalarini ishlatmagan holda, o'xshagan narsarlarning nomini atash yo'li bilan niimaga o'xshatilganligiga imo-ishora qiladi" deydi Radiddin Vatvot.¹ Bu-yopiq tashbih. Misol

Sen labing so'rg'on soyi men qon yutarmen, ey habib,

Sen may ichgilkim, manga xuni jigar bo'lmish nasib.

(Alisher Navoiy)

3. Tashbih-I mashrut (shartli o'xshatish)-bir narsa yoki hodisani boshqa biriga ma'lum shart bilan o'xshatish. Bu tashbihda: -sa, -agar, -gar, -agarda qo'shimchalar ishtirok etadi:

Falakning oyi yuzunga mushobih o'lg'ay agar

Og'zi Suhovu Zuhaldin yuzinda hol ulg'ay.

(Alisher Navoiy)

4. Tashbih-i tasviyat (borobar o'xshatish). Rashididdin Vatvotning aytishicha: tashbihning bu turida "shoir o'zidan bir belgi va tasvirlanayotgan narsadan bir belgini olib, ularni boshqa biror narsa bilan qiyoslaydi"²

Baski ko'ngul og'zi xayolidadur,

G'unchadek o'tmishdurur andom aro.

Tishning shavqida g'altonlik aro yuz go'shada qolg'ay,

Agar inju o'zin solsa duri ashkim qatorinda.

(Alisher Navoiy)

¹ Ishtiboh.Y.Ishoqovning "Tashbeh" maqolasidan olindi.

² O'zbek tili va adabiyoti, 1970, 4-son, 83-84-betlar.

Birinchi baytda shoirning ko'ngli va ma'shuqaning og'zi g'unchaga o'xshatilgna bo'lsa, ikkinchisida shoirning ko'z Yoshi va ma'shuqaning tishlari injuga tashbih etilgan.

5. Tashbih-i aks (teskari o'xshatish)-bir narsani ikkinchi bir narsaga o'xshatish jarayonida hosil bo'gan tashbih bilan kifoyalanmay, endi keyingisini avvalgisiga qiyoshlashi (sochni tunga, tunni sochga kabi):

Suv ko'zgusini biog' aro aylardi shitob,
Siymob qilur erdi taharruk bila tob.
Day qildi bu siymobgni andoq ko'zgi,
Kim ko'zgi aning qoshida bo'lgay siymob.

(Alisher Navoiy)

6. Tashbih-i muzmor (yashirin o'xshatish). Rashididdin Vatvot aytishicha, "shoir bir narsani ikkinchi narsaga tashbih qiladi. Ammo zohiran shunday ish tutadiki, go'yo uning maqsadi o'shatish emas, balki boshqa narsa. Haqiqatda esa fikrning zamirida o'xshatish yotadi".
Misol:

Yuzida terni ko'rib o'lsam, ey rafiq, meni,
Gulob bila yuvgilu, gul bargidin kafan qilg'il.

(Alisher Navoiy)

Baytda ma'shuqaning yuzi gul yaprog'iga, undagi ter gulobga tashbih qilingan.

7. Tashbih-i tafzil (chekinish yo'li bilan o'xshatish) – bir narsani boshqasiga o'xshata turib, o'z fikridan qaytib, o'xshatilgan narsani (mushabbihni) o'xshalgandan (mushabbihunbehdan) ustun qo'yadi. Misol:

Orazingni oy desam, ermas muvajjah, negakim
Oyning ofatlig' ko'zu ruxsorai gulfomi yo'q.
G'unchani og'zing desam, naylay, aning g'uftori yo'q,
Sarvni qadding desam, netay, aning raftori yo'q.

(Husayniy)

8. Tashbih-i musalsal (ketma-ket o'xshatish). Shoir biror narsani bo'rttirib tasvirlash maqsadida uni birin-ketin bir necha narsalarga qiyosh qiladi. Bu tashbihda mashabbih bitta, mushabbihnbeh bir necha bo'ladi:

Har gulki ochibdur may ul orazi diljo'da,
Gullarmu ekin suda, gul aksimu ko'zguda.
Ko'zguda yuzning aksi, gar yaxshi nazar qilsang,
Yor o'yla biaynihkim, kun aksi tushar suda.

(Alisher Navoiy)

Shunday qilib uning yangi hissiyotlari-zamon oldidagi, uzoq va benihoya vaqt oldidagi, uzoq noma'lum kelajak oldidagi, zerikarli va shafqatsiz kutish oldidagi hissiyotlari boshlandi.

Bu yerda vaqt uzoqlik va benihoyalikga, kelajak uzoqlikga va nomalumlikga, kutish zerikarlilik va shafqatsizlikga o'xshatilyapti.

9. Tashbih-i mo'kad (ta'kid yo'li bilan o'xshatish). Bunda o'xshatish vositalari (yordamchi so'zlar: -dek, -day... qo'shimchalari) bo'lmaydi, balki o'xshatilgan va o'xshagan narsagina bo'ladi. Misol:

Hati-binafsha, hali-lola, zulfi-rayhondur,
Bahor husnda yuzi-ajab gulistondir.

(Bobur)

Endilikda, badiiy tilde tashbihlarning ikki hili-an'anaviy o'xshatishlar va yangi-original o'xshatishlar ishlatilmoqda. An'anaviy o'xshatishlar (tishni durga, labni la'lga, g'unchaga, yuzni oyga, ko'zni yulduzga, zulfni zulukka, qomatni sarvga, ma'shuqani gulga, oshiqni bulbulga, ayyorni tulkiga, yuvvoshni qo'yga, yovuzni bo'riga qiyoshlash)-qadimiy tashbihlar bo'lib, bulardan so'z ustalari o'rni-o'rni bilan foydalanmoqdalar. Biroq tilde individual-original, yangi o'xshatishlar ustuvor mavqega ega. Masalan, shoir G'afur G'ulom bir she'rida bo'liq g'azallarni injular uyilgan kumush barkashga o'xshatganki, bu original o'xshatish sh'er tili g'oyasining jozibali chiqishiga ko'mak bergan.

O'xshatish- tashbeh (Ar.o'xshatish) muayyam bir predmet, hodisani aniq tasavvur qilish uchun uni boshqa tanish bo'lgan predmet, hodislarga solishtirishdir.

O'xshatishlar – dek, day,larcha, o'xshash, xuddi, simon, deganda, tahlid, yanglig', misli, go'yo kabi qo'shimchalar, leksik vositalar, ko'makchilar yordamida yaraladi.

Lali labing qandu asal, qildi tamannosi kasal,
Kom olmaganda filmasal, men muhtalo qayga boray.

Muqiymining ushbu baytida ma'shuqa labi ham lalga, ham qandga ham asalga "Tashbihi jam" qilinyapti.

Oy deganda yuzi bor, kun deganda ko'zi bor...

Qaldirg'och qoshlaridan, to'lib qarashlaridan hayot sochilar edi, gullar ochilar edi. Bu parchada H.Olimjon Oygulning yuzini oyga, ko'zini kunga, qoshini qaldirg'ochga, qarashlarini gul ochilishiga o'xshatib, uning go'zalligini ta'kidlaydi va Oygul qiyofasini jonlantiradi. O'xshatish mukammal bo'lishi uchun bunda to'rt unsul qatnashishi lozim.

1. Birlamchi (o'xshtilmoqchi bo'lgan) predmet (sharob to'la payola) ;
2. Ikkilamchi (o'xshatilayotgan) predmet (go'yo bahorgi lola) ;
3. O'xshatilmogchi va o'shatilayotgan predmetlarning o'xshashlik alomati (botayotgan kun kabi, go'yo qizlarning labi- qizil rang) ;
4. O'xshatish qo'shimchasi yoki ko'makchisi (kabi, go'yo) :

Qo'limdagi sharob to'la piyola
Qip-qizildir go'yo bahorgi lola.
Qip-qizildir botayotgan kun kabi,
Qip-qizildir go'yo qizlarning labi

(Hamid Olimjon)

O'xshatishlarning hamma vaqt mukammal bo'lishligini talab etish no o'rin, chunki bu vosita ham asar g'oyasining talabiga binoan turli-tuman (to'liq, to'liqsiz, vositasiz, sodda, murakkab, tarkibli, ketma-ket darajali vahokozo) bo'ladi.

San'atkor hech vaqt an'anaviy o'xshatishlarga (tishni durga, qomatni sarvu-sanobarga, yuzni oyga, ma'shuqani gulga, oshiqni bul-bulga vahokazo) ruju qo'ymasligi, bosh fazilat deb yangi, original o'xshatishlar yaratishni bilishi maqul.

Darvoqe, zulfiya bilan bo'lgan muloqatlarning birida shoiradan so'rashadi:

- Suhbatimiz she'riyat haqida bo'layotgani uchun Geynening bir gapini esladim: "Ayolga ilk bor gulga o'xshatgan odam buyuk shoir bo'lgan. Uni ikkinchi martaba gulga qiyoslagan shoir esa oddiy laqma holos".

Sizningcha, shoir haqmi? Shoira bu savolga: "Yuz foiz. Chunki taqlid she'riyatni dushmani. Undan qochish kerak, deyishadi bazan. Yo'q, uni butunlay yo'qotish kerak", -deya qat'iy va asosli javob beradi.

Demak, Zulfiya aytgandek san'atkor vujudini tug'yonga solib: "Bugun aytmasang, halok qilaman" – deb hayqirib turib turgan fikrni, g'oyani ifodlash uchun har gal qo'liga qalam olganda, anashu g'oya badiiy vositalarni ham yetaklab kelaveradi. So'z ham, badiiy-tasviriy vosita ham o'sha fikrlarning yashash tarzi ekan, shoir so'z tanlashda xatoga yo'l qo'ymasligi lozim aks holda fikr xato bo'ladi.

O'xshatish ko'chimlarning sodda turiga kiradi. Biror predmetning ma'lum bir bieligini boshqa bir predmetga solishtirishga o'xshatish deyiladi. O'xshatish predmetlarning to'g'ridan-to'gir o'xshash tomonlarini ko'rsatish orqali yoki –dek (-day) qo'shimchasi hamda o'xshash, xuddi, go'yo, misli, misoli, singari, yanglig', bamisoli kabi ko'makchilari yodamida yuzaga keladi.

O'xshatish poeziyadagi singari prozada ham, jonli nutqda ham keng qo'llaniladi. Yozuvchi va shoirlar o'xshatishdan o'z kirlarini yaqqol ifodalash, o'z niyatlarini o'quvchiga tez anglatish, taibat hodisalarini tasvirlash, obra yaratish vositasi sifatida foydalanadi. Masalan, shoir Mamarasul Boboyevning "Suv van ur balladasi" sh'eridan ikki bandni olib ko'raylik:

Oltin ko'ptok kabi quyosh yumalab,
 Bulut poyalardan tushib bormoqda.
 Osmon gumbazini charog'on etib,
 Farhod yulduzlari yondi bir yoqda.
 Yangi izdan, huddi yashil kamala,
 Sirdaryo lopillab, to'lib oqadi.
 Uning asovligi ancha bosilgan,
 Bandga tushga sherday bizga boqadi.

Bun bandlarda qo'llanilgan o'xshatishlar tasvir ob'ekti (Quyosh va Sirdaryo)ni jonlantirib yuborga: birinchi bandda quyoshning botish oldidagi harakati oltin ko'ptokning yulamalashiga o'xshatilsa, ikkinchi bandda Sirdaryoning yangi o'zadan oqishi yashil kalamakning tovlanishiga, jilvalanishidan so'ngi daryoning holati asovligi bosilgan toyga, bandga tushga sherga muqoyasa qilinadi. Shu tariqa shoir tasvirlanayotgan predmetlar (Quyosh, Sirdaryo) ni konkretlashtiradi, ularning holatlari va hatti-harakatlarini obrazli-emotsional tarzda ifodalaydi. Natijada, she'r, birinchidan, qiziqish bilan o'qiladi, ikkinchidan, kitobxonga zavq-shavq ba'g'ishlaydi, uchinchidan, tabiatni jilovlab o'z izmiga solayotgan inson qudratini sharaflaydi.

O'xshatish badiiy asarda sifaltlash, istiora, mubolaga va boshqa badiiy vositalar bilan bog'liq holda ishlatiladi. Masalan, shoira Ra'no Uzoqovanning "Unutmadim men ham" she'ridan olingan quyidagi misralarga e'tibor bering:

Firog'ida intizor ko'zlar
 Mana endi o'tdek yonadi.

Yurak esa, go'dak singari
Sevinchidan chapak chaladi.
Unutmabdi, men unutaymi?

Shu birgina bandda o'xshatish ham, sifatlash ham, mubolag'a ham, jonlantirish ham qo'llanilgan-bu tasvir vositalarning jamuljamligi lirik qahramonning his-tuyg'ularini obrazli-emotsional tarzda ochib bergan.

O'xshatishlar asarda obraz va manzaralar yaratish bilan briga, yozuvchining voqelikka bo'lgan munosabatini aniq ifodalaydi.